



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSION SIYOSATI VA DIPLOMATIYASI (POLSHA RESPUBLIKASI VA LATVIYA RESPUBLIKASI MISOLIDA)

**Yaxyoyeva Ferangiz Olim qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi magistratura bosqichi talabasi*

**Izoh:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'lgan Polsha hamda Latviya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy va investitsion siyosati va diplomatiyasi muhokama qilinadi. Maqolada ushbu mavzuga oid yo'nalishlar va statistik ma'lumotlar ko'rib chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** iqtisodiy diplomatiya, eksport, import, investitsiya, savdo, Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi, logistika, diversifikatsiya, elchixonona, tranzit

### Kirish

Iqtisodiy diplomatiya davlatning milliy manfaatlariga erishish uchun barcha iqtisodiy vositalaridan foydalanadigan diplomatiya shaklidir. Iqtisodiy diplomatiya doirasi davlatning barcha xalqaro iqtisodiy faoliyatini, xususan, eksport, import, investitsiyalar, kreditlar, yordam, erkin savdo shartnomalari va boshqalarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan siyosiy qarorlarni qamrab olishi mumkin. Iqtisodiy diplomatiya iqtisodiy siyosat masalalari bilan shug'ullanadi. Iqtisodiy diplomatlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini kuzatib boradi va hisobot beradi. Iqtisodiy diplomatiya mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy muhim vosita hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz rahbarining ham tegishli qarorlari qabul qilingan. Unda O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi asosiy e'tiborni iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirishga qaratishi zarurligi ta'kidlangan. Xorijiy elchixonalarimiz faoliyatida iqtisodiy diplomatiya markaziy o'rinni egallashi lozim. Hozirda mamlakatimizda Tashqi ishlar vazirligi va diplomatik vakolatxonalari tomonidan bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifa va maqsadlaridan biri iqtisodiy diplomatiya orqali chet elda mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlarini ilgari surishdir. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining xorijiy vakolatxonalari xorijiy sheriklar bilan har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yishda o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Mamlakatimizning tashqi siyosiy hamda savdo iqtisodiy manfaatlarini diplomatik va boshqa xalqaro-huquqiy vositalar orqali ilgari surish kerak. Mamlakatimiz tashqi savdosini yaxshilashda, xorijiy investorlarni jalb



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

qilishda nafaqat Tashqi ishlar vazirligi va xorijiy vakolatxonalar, balki O'zbekiston investitsiya, sanoat va savdo vazirligining ham hissasi katta. U tashqi savdoda yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimining samarali ishlashiga ko'maklashadi va ta'minlaydi. Ulgurji va birja tashqi savdoni tartibga solish masalalarini muvofiqlashtiradi. Yevropadagi bozorlar holatini monitoring va tahlil qiladi, marketing tadqiqotlarini o'tkazadi. Tovarlarining jahondagi narxлари to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantiradi. Shu jumladan, tranzit salohiyati darajasini oshirish, logistika va transport yo'laklarini takomillashtirish, eksport marshrutini diversifikatsiya qilish masalalarini ilgari suradi. Teng sheriklik, o'zaro manfaatli va kamsitmaslik prinsiplariga asoslangan tashqi savdo faoliyatini erkin hamda teng huquqli amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishda ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik masalalari borasidagi xalqaro shartnomalarni tayyorlash, kelishish va imzolashda ishtirok etadi. Investitsiya va savdo faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolarni doimiy asosda o'rganadi. Maqolamda biz O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, xususan Polsha hamda Latviya Respublikalari bilan iqtisodiy, savdo, investitsion aloqalarini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston – Polsha munosabatlari

Polsha – Sharqiy Yevropaning markazi hisoblanadi. O'zbekiston – Polsha hamkorligiga Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi ko'prik sifatida qaraladi. Polsha Respublikasi O'zbekiston Respublikasi bilan 1992 yil 19 martda diplomatik munosabatlarni o'rnatgan. Polsha Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi 1995 yildan beri faoliyat yuritib keladi. 2019 yil 1 fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi 45 davlat, shu jumladan Polsha Respublikasi fuqarolari bo'lgan sayyohlarning yurtimizda 30 kungacha bo'lishi uchun vizasiz rejim joriy etildi.

Ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimga muvofiq O'zbekiston bilan Polsha o'rtasidagi savdoda eng qulay davlat rejimi o'rnatildi. 2017 yildan buyon O'zbekistondan eksport hajmining har yili 15-17 million dollarga o'sishi kuzatilmoqda. 2021 yil yakuniga ko'ra o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 248 million dollarni, shundan O'zbekiston eksporti – 87,9 million dollarni, import - 160, 1 million dollarni tashkil etdi. (Yel dagi eng yuqori ko'rsatkich). Polsha O'zbekistondan import bo'yicha Yevropa Ittifoqining birinchi davlati bo'ldi. 2022 yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, tovar ayirboshlash 123,5 million dollarni (+45,1) tashkil etdi, shundan O'zbekiston eksporti – 48,9 million dollar



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

(+56,2), import – 74,6 million dollar (+38,7). Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Polsha hukumatlararo komissiyasi (IPC) hisoblanadi. Ayni paytda O'zbekistonda Polsha kapitali ishtirokidagi 39 ta korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 14 tasi energetika, to'qimachilik, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi sohalarida 100 foiz xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatmoqda. 2018 yil sentabr oyida Toshkentda Polsha investitsiya va savdo agentligining vakolatxonasi ochildi.

Mamlakatimiz viloyatlari o'rtasida ham, xususan Qashqadaryo viloyati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish doirasida va Polsha, 2019 yil 10-13-fevral kunlari hokim o'rinbosari O.Shagzatov boshchiligidagi viloyat delegatsiyasi (jami 6 kishi) Varshava shahrida bo'lishdi. Tashrif davomida Polshaning qishloq xo'jaligi (chorvachilik, parrandachilik, kartoshka urug'chiligi, intensiv bog'dorchilik), energetika, qurilish, poyabzal, tibbiyot, kimyo va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida faoliyat yurituvchi 14 ta kompaniya vakillari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. 2019 yil may oyida Jizzax viloyati hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari M.Xolbo'taev boshchiligidagi delegatsiya Polshaga tashrif buyurdi. Polsha sarmoyasini qishloq xo'jaligi mashinasozligi va qishloq xo'jaligi kompleksini rivojlantirishga jalb etish masalalari muhokama qilindi. 2020 yil 12-15-fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi vaziri N.Xusanov boshchiligidagi delegatsiyaning Polshaga tashrifi uyushtirildi va uchrashuv doirasida uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Polsha oila, mehnat va ijtimoiy siyosat vaziri M.Malaga, bosh mehnat inspektori V.Jishchek, Mazovetski vovodoligi merining birinchi o'rinbosari T.Syeradz va boshqalar bilan. O'zbekiston Respublikasining Polshadagi elchixonasi ko'magida 2022 yil umumiy qiymati 45,8 mln AQSH dollariga teng 23 ta eksport shartnomasi tuzilgan.

Varshava shahrida Polshadagi birinchi "O'zbekiston - Polsha savdosi" o'zbek biznes markazi ochildi. U yerda 10 nafar o'zbeklar faoliyat yuritadi. Markazning ochilishidan maqsad O'zbekiston – Polsha o'rtasidagi eksport-import almashinuvini rivojlantirish, ikki davlat o'rtasida yuk tashish bo'yicha logistika markazini yaratish, konsalting xizmatlarini yuritish va boshqalar. 2022 yil avgust oyida Varshavada O'zbekiston tovar xom ashyo birjasining elektron savdo maydonchasi ochildi va bir qancha tovarlar aynan shu platforma orqali Polshaga eksport kilindi. Joriy yilning noyabr oyida mamlakatimizning Polshadagi elchixonasi tomonidan "Polsha-Osiyo" Savdo sanoat palatasi bilan birgalikda "O'zbekiston va Polsha o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va logistika sohalarida hamkorlik imkoniyatlari" mavzusida yig'ilish bo'lib o'tdi. Davra suhbatlari Polshaning "Polsha-Sharq" hamkorligi



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

uyushmasi, “ESA Logistics”, “Transport Manager” va boshqa nufuzli kompaniyalar rahbarlari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Suhbatda mamlakatimiz vakillari O‘zbekiston va Polshaning iqtisodiy hamkorligi holati va uning istiqbollari, Yangi O‘zbekistonning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport salohiyati to‘g‘risida taqdimot o‘tkazishgan. Polsha vakillarining ta’kidlashicha, ular yurtimizdagi o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib o‘rganib kelishmoqda va ularni yurtimizga bo‘lgan qiziqishining oshish sabablari bular, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va yurtimizda biznes yuritish uchun sharoitlar sezilarli darajada yaxshilangani. Bundan tashqari Polsha kompaniyalari inson kapitaliga katta qiziqish bildirishmoqda va qonuniy migratsiyani taklif qilishmoqda.

Yaqin kunlarda O‘zbekistonning Polshadagi elchisi Bahrom Bobayev diplomatik missiyasini yakunlaganida Polshaning Eurogospodarka nashriga intervyu berdi. Diplomat O‘zbekiston va Polsha o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari qatoriga savdo, sarmoyaviy va moliyaviy hamkorlik, yuqori texnologiyalar transferi, fan, texnologiya, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarida o‘zaro hamkorlik, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash kiradi. Polsha O‘zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy sheriklaridan biridir, – deydi Bahrom Bobayev. Logistika imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog‘liq muayyan qiyinchiliklarga qaramay, 2022 yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi birinchi marta 352 million dollarga yetdi, jumladan, O‘zbekistondan Polshaga eksport hajmining oshishi hisobiga bu ko‘rsatkich 131,1 million dollarni tashkil etdi. Polsha ikki yildan buyon O‘zbekistondan mahsulot import qilish bo‘yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari orasida yetakchilik qilmoqda. Elchining so‘zlariga ko‘ra, yaqin kelajakda Polshaning Transforwarding International (transport/logistika), Pronar (qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish), Seneka Polsha (baliq yetishtirish), KGHM (mis ishlab chiqarish va qayta ishlash) va boshqa kompaniyalari o‘z kapitalini kiritish niyatida. 2023 yilning 9 oyi davomida 5000 dan ortiq Polsha fuqarolari mamlakatga tashrif buyurdi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi va Polshaning LOT aviakompaniyasi 2024 yil 23 fevraldan “Varshava – Toshkent – Varshava” to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvga erishdi. “O‘tgan yillar davomida ko‘p ishlar qilindi, biroq oldinda kun tartibining aniq sohalari bo‘yicha ikki tomonlama ko‘p ishlar turibdi. Maqsadimiz O‘zbekiston va Polsha o‘rtasida keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik masalalari bo‘yicha chuqur muloqot va amaliy hamkorlikni amalga oshirishdan iborat”, — deya xulosa qildi elchi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

O‘zbekiston – Latviya munosabatlari

Toshkentda Latviya elchixonasi 1992 yil noyabrda, O‘zbekistonning Rigada elchixonasi 1995 yil iyun oyida ochilgan. 1994 yil noyabr oyida Latviyaning O‘zbekistondagi elchisi, 2002 yil avgust oyida esa O‘zbekistonning Latviyadagi elchisi tayinlanishi bilan mamlakatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Latviyaning Markaziy Osiyodagi asosiy hamkorlik sheriklaridan biri hisoblanadi. Latviya ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqiga (YEI) a‘zo davlat sifatida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin aloqalarini, shu jumladan, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha Strategiyasini amalga oshirishni davom ettirmoqda. Latviya va O‘zbekiston o‘rtasida yaxshi siyosiy va iqtisodiy aloqalar mavjud. So‘nggi yillarda mamlakatlar o‘rtasidagi muloqot izchil rivojlanib, muntazam ravishda oliy darajadagi tashriflar almashinuvi va tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar, shuningdek, iqtisodiy masalalar bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar majlislari o‘tkazilmoqda. Latviya tomoni har ikki davlatning geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratish imkonini beradi, deb hisoblaydi. Latviya O‘zbekistonning yangi siyosiy rahbariyatning mamlakatda biznes va sarmoyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan islohot va rejalarini yuqori baholaydi – ularning amalga oshirilishi hamkorlikni rivojlantirishga yangi sur‘at bag‘ishlashi mumkin.

Latviya O‘zbekistonning o‘zbek mahsulotlarini Yevropaga eksport qilish uchun logistika va distribyutsiya sohasida taklif etayotgan imkoniyatlaridan kengroq foydalanishidan manfaatdor. O‘zbekiston mintaqaviy transport yo‘nalishlari faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Latviya Tashqi ishlar vazirligining qayd etishicha, transport va tranzit sohasidagi yangi tashabbuslar mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni mustahkamlashning muhim omili bo‘lgan iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirishga yordam beradi. Latviya va O‘zbekiston poytahtlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar, ishbilarmonlik aloqalari va turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega qit‘alararo reyslar 2004 yildan beri amalga oshirilmoqda. Latviya tadbirkorlarining O‘zbekiston bilan hamkorlikdagi manfaatlari farmatsevtika sanoati, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, axborot texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalar, turizm va boshqa sohalarni ham qamrab olmoqda.

Latviyaning O‘zbekistondagi elchisi Mixails Popkovs Podrobno.uz sahifasining korrespondentiga bergan intervyusida shunday deydi: “Latviya uchun O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar tashqi



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun biz O‘zbekistondagi islohotlar jarayonini ayniqsa diqqat bilan kuzatib boramiz. Ijobiy o‘zgarishlar nafaqat O‘zbekistonning o‘zida, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ham o‘z aksini topayotgani quvonarli. O‘zbekiston Latviyaning Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi yetakchi tashqi savdo-iqtisodiy hamkoridir. O‘z navbatida, Latviya O‘zbekistonning yetarlicha muhim savdo-iqtisodiy sherigi bo‘lib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida tovar ayirboshlash bo‘yicha Germaniya va Italiyadan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Latviyaning O‘zbekiston Respublikasiga eksporti tarkibida kimyo sanoati mahsulotlari, asosan, dori vositalari, shuningdek, turli elektr jihozlari va mexanizmlari katta ulushga ega. O‘z navbatida, O‘zbekiston Latviyaga asosan yangi meva-sabzavot, quritilgan mevalar va to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qiladi.

Biroq, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish salohiyati, albatta, tugallanmagan. Elchixonada Latviyaning qator kompaniyalari o‘zbekistonlik hamkorlar bilan aloqalarini kengaytirish bo‘yicha faol ishlar olib borayapti. Ayni paytda biz Latviyaning mashhur “Dzintars” brendining kosmetika va parfyumeriya mahsulotlarini O‘zbekiston bozorida ilgari surishdan manfaatdor bo‘lgan O‘zbekistonda jiddiy distribyutorlarni qidirmoqdamiz. Ishonchim komilki, faqat tabiiy ingrediylentlardan tayyorlangan Dzintars mahsulotlari O‘zbekiston bozorida yaxshi istiqbolga ega”. 2015-2019 yillarda Polsha va Latviya 2007 yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi doirasida, xususan, O‘zbekiston Respublikasini qamrab olgan Yevropa Ittifoqining Ta’lim platformasi – Markaziy Osiyoning muvofiqlashtiruvchi davlatlari bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar – sentyabr holatiga) 1

Мамлакат	Савдо тури	2021 йил	2022 йил	2023 йил
Полша				
	Экспорт			
	Импорт			

Polsha va Latviya bilan tovar va xizmatlar importi hajmi (yanvar – sentabr holatiga)2

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги Ташқи иқтисодий фаолият ва савдо статистикаси бошқармасининг 2023 йил 20 октябр ҳолатидаги ҳисоботи (рус тилида) 4-бет

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги Ташқи иқтисодий фаолият ва савдо статистикаси бошқармасининг 2023 йил 20 октябр ҳолатидаги ҳисоботи (рус тилида) 25-бет



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Мамлакат	млн.АҚШ доллари		Ўсиш суръати % да		Ўрни	
	20 22 йил	20 23 йил	20 22 йил	йил	2 022 йил	2 023 йил
Полша						
Латвия						

Polsha va Latviya bilan tovar va xizmatlar importi hajmi (yanvar – sentabr holatiga) <sup>3</sup>

Мамлакат	млн.АҚШ доллари		Ўсиш суръати % да		Ўрни	
	2 022 йил	20 23 йил	20 22 йил	йил	2 022 йил	2 023 йил
Латвия						
Полша						

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Latviya o‘rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy elchilarini qabul qilganida ular orasida Latviya elchisi ham bor edi. Uchrashuvda Prezidentimiz Latviya O‘zbekistonning Yevropadagi ishonchli va muhim hamkori bo‘lib, ko‘p yillar davomida mamlakatning Boltiqbo‘yi va Skandinaviya bozorlariga chiqishiga ko‘maklashib kelayotgani, Latviya Respublikasi O‘zbekistonni xalqaro tashkilotlar va Yevropa Ittifoqi doirasida doimiy qo‘llab-quvvatlab kelayotganligi haqida gapirdi. Latviya ishbiarmonlarining O‘zbekiston bilan hamkorligidagi manfaatlari oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, farmatsevtika, turizm va boshqa sohalarni qamrab oladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Latviya uchun mintaqaviy transport yo‘nalishlari faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Latviya banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2017 yilning birinchi choragi yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning Latviyaga kiritgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari saldosini 31 mln yevroni tashkil qilgan. O‘z navbatida, O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan Latviya to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarining qoldiqlari 2 mln yevroni tashkil etdi. Va yana

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги Ташқи иқтисодий фаолият ва савдо статистикаси бошқармасининг 2023 йил 20 октябр ҳолатидаги ҳисоботи (рус тилида) 14-бет



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Latviya bilan O‘zbekiston investitsiya, sanoat va savdo vazirligi raqamli texnologiyalar, investitsiyalar va startaplar, o‘rmon xo‘jaligi va ekoturizm sohalarda hamkorlikni amalga oshirishni ko‘rib chiqishmoqda. 2021 yil O‘zbekiston Latviya o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 115 mln AQSH dollarini tashkil etgan. 2022 yilda Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi bilan O‘zbekistonning Latviyadagi elchixonasi ko‘magida Riga shahrida ilk bor “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” biznes missiyasini tashkil qilishdi. Missiyani tashkil qilishdan maqsad – kelajakda ikki tomonlama investitsiya va turizm sohasini rivojlantirish.

## Xulosa:

Ayni paytda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining muhim bosqichini boshidan kechirmoqda, yangi O‘zbekistonning keng ko‘lamli va ulkan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish boshlandi. Mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar jarayonida erkin va farovon davlatning yangi demokratik qiyofasi yaratilmoqda. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqini muhim xalqaro hamkorlardan biri deb biladi. Demokratiya, qonun ustuvorligi, inson huquqlarini himoya qilish, tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni saqlash kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga katta hissa qo‘shmoqda. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘zaro savdo hajmini oshirish bo‘yicha tashabbuslarni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini birgalikda ishlab chiqmoqda. Ko‘rsatkichlar bo‘yicha, uning hajmini yaqin kelajakda 10 milliard AQSH dollariga yetkazish, shu tariqa, O‘zbekiston-Yevropa ko‘p tomonlama munosabatlari va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, konstruktiv siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy, o‘zaro manfaatli hamkorlik dasturlari va loyihalarini ilgari surish, sarmoyaviy va moliyaviy-texnikaviy, shuningdek, ekologiya, ta’lim, turizm va boshqa sohalarda ham O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning ko‘plab ikki tomonlama davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo kelishuvlari, xalqaro hujjatlar, shuningdek, qabul qilingan ko‘p tomonlama hujjatlarga asoslanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 05.04.2018 yildagi PQ-3654-son "O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori





# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasining 2023 yil 20 oktyabr holatidagi hisoboti (rus tilida)
3. Pravda Vostoka gazetasining 2022 yil 13 sentyabrdagi “30 let i novaya glava v ekonomicheskix otnosheniyax mejdu Uzbekistanom i Latviyey” nashri (rus tilida)
4. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ramiy sayti [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)
5. Polsha Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasining rasmiy sayti (gov.pl rus tilida)
6. O‘zbekiston Respublikasining Polsha Respublikasidagi elchixonasining rasmiy sayti (<http://www.uzbekistan.pl/#> rus tilida)
7. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi “Dunyo” informatsion agentligining 2023 yil 7 noyabrda bergan ma’lumotlari — Poshada Yangi O‘zbekistonning ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika salohiyati haqida <https://dunyo.info/uz/ekonomicheskaya-diplomatiya/v-polshe-predstavlen-torgovo-ekonomicheskij-investicionnyy-i-transport>
8. Latviya Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi rasmiy sayti — Latviya-O‘zbekiston munosabatlari bo‘limi <https://www2.mfa.gov.lv/ru/uzbekistan/latviysko-uzbekske-otnosheniya>
9. Latviya-O‘zbekiston munosabatlari Vikipediya sahifasi <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%9B%D0%B0%D1%82%D0%B2%D0%B8%D0%B9%D1%81%D0%BA%D0%BE-%D1%83%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B5%D0%BE%D1%82%D0%BD%D0%BE%D1%88%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F>
10. [https://en.wikipedia.org/wiki/Economic\\_diplomacy](https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_diplomacy)
11. O‘zbekistonning Polshadagi elchisi Bahrom Bababyevning Eurogospodarka nashriga bergan intervyusi <https://dunyo.info/ru/novosti-diplomaticeskix-predstavitelstv/posol-bahrom-babaev-sdelano-nemalo-odnako-vpered-i-bolshaya-rabota-po-v>
12. Latviyaning O‘zbekistondagi elchisi Mixail Popkovsning Podrobno.uz sahifasining korrespondentiga bergan intervyusi <https://dunyo.info/ru/novosti-diplomaticeskix-predstavitelstv/posol-bahrom-babaev-sdelano-nemalo-odnako-vpered-i-bolshaya-rabota-po-v>